

TORAKOABDOMINAL JAROHLARDA MINIINVAZIV USULLAR YORDAMIDA DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH

Sattorov Abbos Xalilovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

2-son xirurgik kasalliklar kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Torakoabdominal jarohatlar zamonaviy shoshilinch jarrohlikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi jarohatlar ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i a'zolarining bir vaqtning o'zida shikastlanishi bilan tavsiflanib, yuqori letallik va nogironlikka olib kelishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi torakoabdominal jarohlarda miniinvaziv diagnostik va davolash usullarining samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari videotorakoskopiya va laparoskopiyaning diagnostik aniqligi yuqori ekanligini hamda ochiq operatsiyalar sonini kamaytirishini ko'rsatdi. Miniinvaziv usullar bemorlarning statsionarda qolish muddatini qisqartirish va operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: torakoabdominal jarohat, videotorakoskopiya, laparoskopiya, miniinvaziv jarrohlik, diagnostika, davolash.

ТОРАКОАБДОМИНАЛЬНЫЕ ТРАВМЫ: ДИАГНОСТИКА И ЛЕЧЕНИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МАЛОИНВАЗИВНЫХ МЕТОДОВ

Сатторов Аббос Халилович

Самаркандский государственный медицинский университет

Ассистент кафедры хирургических болезней № 2

Аннотация. Торакоабдоминальные травмы являются одной из актуальных проблем современной неотложной хирургии. Данный вид повреждений характеризуется одновременным поражением органов грудной клетки и брюшной полости, что может приводить к высокой летальности и инвалидизации пациентов. Целью исследования явилась оценка эффективности малоинвазивных методов диагностики и лечения при торакоабдоминальных травмах. Результаты исследования показали высокую диагностическую точность видеоторакоскопии и лапароскопии, а также их

способность снижать количество открытых хирургических вмешательств. Использование малоинвазивных методов способствует сокращению сроков госпитализации пациентов и уменьшению частоты послеоперационных осложнений.

Ключевые слова: торакоабдоминальная травма, видеоторакоскопия, лапароскопия, малоинвазивная хирургия, диагностика, лечение.

THORACOABDOMINAL INJURIES: DIAGNOSIS AND TREATMENT USING MINIMALLY INVASIVE METHODS

Sattorov Abbos Khalilovich

Samarkand State Medical University

Assistant of the Department of Surgical Diseases No. 2

Abstract: Thoracoabdominal injuries remain one of the most challenging problems in emergency surgery. Simultaneous damage to thoracic and abdominal organs is associated with high morbidity and mortality. The aim of this study was to evaluate the effectiveness of minimally invasive diagnostic and therapeutic methods in thoracoabdominal trauma. The results demonstrated that videothoracoscopy and laparoscopy provide high diagnostic accuracy and reduce the need for open surgical interventions. Minimally invasive techniques contribute to shorter hospital stay and lower postoperative complication rates.

Keywords: thoracoabdominal trauma, videothoracoscopy, laparoscopy, minimally invasive surgery, diagnosis, treatment.

Kirish

Torakoabdominal jarohatlar ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i chegarasida joylashgan anatomik tuzilmalarning bir vaqtning o'zida shikastlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu jarohatlar yo'l-transport hodisalari, balandlikdan yiqilish, o'qotar va pichoq jarohatlari natijasida yuzaga keladi. Diafragma, jigar, taloq, oshqozon va o'pka shikastlanishlari torakoabdominal travmalarning asosiy klinik ko'rinishlarini tashkil etadi.

An'anaviy diagnostika usullari, jumladan rentgenografiya, ultratovush tekshiruvi va kompyuter tomografiyasi ayrim hollarda yashirin jarohatlarni aniqlashda yetarli

darajada informativ bo'lmaydi. Shu sababli miniinvaziv usullar, xususan videotorakoskopiya va laparoskopiya nafaqat diagnostik, balki davolovchi maqsadlarda ham keng qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda shoshilinch jarrohlik amaliyotida miniinvaziv texnologiyalarni joriy etish torakoabdominal jarohatlarni davolash natijalarini sezilarli yaxshilash imkonini bermoqda.

Tadqiqot maqsadi

Torakoabdominal jarohlarda miniinvaziv diagnostika va davolash usullarining klinik samaradorligini baholash.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot torakoabdominal travma bilan davolangan bemorlarning klinik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tahlilga turli etiologiyadagi, jumladan yo'l-transport hodisalari, balandlikdan yiqilish, maishiy va ishlab chiqarish jarohatlari, o'qotar hamda pichoq bilan yetkazilgan torakoabdominal shikastlanishlar bilan shifoxonaga yotqizilgan bemorlar kiritildi.

Bemorlarning yoshi, jinsi, travmaning turi, shikastlanishning og'irlik darajasi, diagnostika va davolash natijalari retrospektiv hamda prospektiv tarzda o'rganildi.

Tadqiqot davomida bemorlar qo'llanilgan davolash taktikasiga qarab ikki guruhga ajratildi.

1-guruh – miniinvaziv diagnostik va davolovchi usullar qo'llanilgan bemorlar.

Ushbu guruhda videotorakoskopiya va laparoskopiya yordamida ko'krak qafasi hamda qorin bo'shlig'i organlarining holati baholandi va zarur hollarda bir vaqtning o'zida davolovchi manipulyatsiyalar bajarildi.

2-guruh – an'anaviy ochiq jarrohlik amaliyotlari, ya'ni torakotomiya va laparotomiya bajarilgan bemorlar. Ushbu bemorlarda diagnostika natijalari va klinik ko'rsatkichlardan kelib chiqib standart jarrohlik yondashuvi tanlandi.

Barcha bemorlarda shifoxonaga qabul qilingandan so'ng umumqabul qilingan klinik diagnostika algoritmi asosida tekshiruvlar o'tkazildi. Dastlab bemorning umumiy holati, gemodinamik ko'rsatkichlari, nafas olish faoliyati va shok belgilariga baho berildi. Fizikal tekshiruv davomida ko'krak qafasi va qorin

sohasining og'riqliligi, deformatsiyasi, nafas olish ekskursiyasi hamda peritoneal simptomlar aniqlashtirildi.

Laborator tekshiruvlar umumiy qon va siydik tahlillari, biokimyoviy qon tahlillari, koagulogramma hamda qon gazlari ko'rsatkichlarini o'z ichiga oldi. Ushbu ma'lumotlar qon yo'qotish darajasi, yallig'lanish jarayoni va ichki organlar faoliyatini baholash imkonini berdi.

Instrumental diagnostika quyidagi usullarni qamrab oldi:

- ko'krak qafasi rentgenografiyasi;
- qorin bo'shlig'i va plevra bo'shlig'i ultratovush tekshiruvi (FAST-protokol);
- kompyuter tomografiyasi;
- diagnostik laparoskopiya;
- diagnostik videotorakoskopiya.

Rentgenografiya yordamida pnevmotoraks, gemotoraks, qovurg'alar sinishi va diafragma gumbazining patologik holatlari aniqlandi. Ultrasonografiya qorin bo'shlig'ida erkin suyuqlik mavjudligini hamda parenximatov organlar shikastlanishini aniqlash imkonini berdi. Gemodinamik jihatdan barqaror bemorlarda kompyuter tomografiyasi bajarilib, ko'krak va qorin bo'shlig'i organlarining shikastlanish darajasi batafsil baholandi.

Miniinvaziv diagnostika usullari sifatida videotorakoskopiya va laparoskopiya alohida ahamiyat kasb etdi. Videotorakoskopiya yordamida plevra bo'shlig'idagi qon ketish manbalari, o'pka jarohatlari va diafragma nuqsonlari aniqlanib, zarur hollarda gemostaz hamda drenajlash ishlari bajarildi. Laparoskopiya orqali qorin bo'shlig'i organlari reviziyasi o'tkazildi, qon ketish manbalari aniqlandi va ayrim hollarda miniinvaziv usulda bartaraf etildi.

Davolash natijalarini baholashda operatsiya davomiyligi, qon yo'qotish hajmi, operatsiyadan keyingi asoratlar soni, statsionarda davolanish muddati hamda letallik ko'rsatkichlari o'rganildi.

Olingan natijalar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, guruhlararo farqlar ishonchlilik darajasi bo'yicha baholandi. Miqdoriy ko'rsatkichlar o'rtacha qiymat

va standart og'ish ko'rinishida ifodalandi. Statistika jihatdan ahamiyatli farq sifatida $p < 0,05$ qiymati qabul qilindi.

Natijalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari torakoabdominal jarohatlarda miniinvaziv diagnostika va davolash usullarining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Videotorakoskopiya va laparoskopiya qo'llanilgan bemorlarda ko'krak qafasi hamda qorin bo'shlig'i organlarining shikastlanishlarini erta bosqichda aniqlash imkoniyati sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, diafragma yorilishi, gemotoraks, pnevmotoraks, jigar va taloqning kichik hajmdagi jarohatlari an'anaviy instrumental tekshiruvlarda aniqlanmagan holatlarda ham miniinvaziv usullar yordamida muvaffaqiyatli tashxis qilindi.

Videotorakoskopik tekshiruv davomida plevra bo'shlig'ining holati bevosita vizual nazorat ostida baholandi. Ushbu usul yordamida gemotoraks manbalari aniqlandi, plevra bo'shlig'idagi qon va patologik suyuqliklar evakuatsiya qilinib, sanatsiya ishlari bajarildi. Bundan tashqari, o'pkaning yuzaki jarohatlari aniqlanib, endoskopik usulda tikish yoki koagulyatsiya qilish imkoniyati yaratildi. Diafragma nuqsonlari va yorilishlari aniqlangan hollarda esa ularni miniinvaziv usulda tiklash amalga oshirildi. Natijada bemorlarning aksariyatida keng hajmli torakotomiyaga ehtiyoj kamaydi.

Laparoskopik tekshiruv qorin bo'shlig'i organlarining shikastlanishlarini baholashda yuqori informativlikka ega ekanligi bilan ajralib turdi. Ushbu usul yordamida qorin bo'shlig'idagi qon ketish manbalari aniqlandi, jigar va taloqning yuzaki jarohatlarida gemostazga erishildi hamda zarur hollarda elektrokoagulyatsiya bajarildi. Shuningdek, qorin bo'shlig'i sanatsiyasi va drenajlash ishlari amalga oshirildi. Laparoskopiya keraksiz laparotomiyalar sonini kamaytirishga ham xizmat qildi.

Miniinvaziv usullar qo'llanilgan bemorlarda operatsiya jarohati hajmining kichikligi tufayli operatsiyadan keyingi og'riq sindromi kamroq kuzatildi. Bunday bemorlar ertaroq faollashdi, nafas olish funksiyasi tezroq tiklandi va operatsiyadan

keyingi davr yengilroq kechdi. Shu bilan birga, qon yo'qotish hajmi ochiq operatsiyalar bajarilgan bemorlarga nisbatan kamroq bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, miniinvaziv usullar qo'llanilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi asoratlari, jumladan plevrit, yara infeksiyasi, pnevmoniya va uzoq muddatli reabilitatsiyani talab qiluvchi holatlar kamroq uchradi. Statsionarda davolanish muddati ham sezilarli qisqarib, bemorlarning kundalik faoliyatga qaytish jarayoni tezlashdi.

Olingan natijalarga ko'ra, videotorakoskopiya va laparoskopiniyning diagnostik aniqligi 90 % dan yuqori bo'lib, torakoabdominal jarohatlarning xarakteri va hajmini ishonchli baholash imkonini berdi. Mazkur usullar nafaqat diagnostik, balki davolovchi ahamiyatga ham ega bo'lib, ko'plab hollarda ochiq jarrohlik amaliyotlarining oldini olishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari torakoabdominal travmalarni davolashda miniinvaziv texnologiyalarni keng qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqladi.

Muhokama

Torakoabdominal jarohatlar shoshilinch xirurgiyaning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi travmalarda ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i organlarining bir vaqtning o'zida shikastlanishi diagnostika va davolash jarayonini murakkablashtiradi. So'nggi yillarda miniinvaziv texnologiyalarning amaliyotga keng joriy etilishi torakoabdominal jarohatlarni tashxislash va davolash samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, videotorakoskopiya va laparoskopiya an'anaviy diagnostik usullarga nisbatan yuqori informativlikka ega. Ushbu usullar yordamida ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'idagi yashirin shikastlanishlarni erta aniqlash, qon ketish manbalarini topish hamda bir vaqtning o'zida davolovchi manipulyatsiyalarni bajarish mumkin. Ayniqsa, diafragma yorilishlari, kichik hajmdagi gemotorakslar va parenximatoz organlarning yuzaki shikastlanishlarini aniqlashda miniinvaziv usullarning afzalligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Videotorakoskopiya plevra bo'shlig'i va ko'krak qafasi organlarini to'g'ridan-to'g'ri vizual baholash imkonini beradi. Ushbu usul orqali plevra bo'shlig'idagi qon va eksudatlarni evakuatsiya qilish, gemostazni ta'minlash, o'pka jarohatlarini tikish hamda diafragma nuqsonlarini bartaraf etish mumkin. Shu sababli ko'plab hollarda keng torakotomiyadan voz kechish yoki uning hajmini kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Laparoskopiya esa qorin bo'shlig'i organlarining holatini minimal travmatizatsiya bilan baholash imkonini beradi. Mazkur usul jigar, taloq, oshqozon va ichaklarning yashirin jarohatlarini aniqlashda yuqori sezuvchanlikka ega. Bundan tashqari, qorin bo'shlig'idagi qon ketish manbalarini aniqlash, gemostazni amalga oshirish, sanatsiya va drenajlash ishlarini bajarish imkonini yaratadi. Natijada diagnostik laparotomiyalar soni sezilarli darajada kamayadi.

Olingan natijalar boshqa mualliflarning ma'lumotlari bilan hamohang bo'lib, miniinvaziv yondashuvlarning klinik samaradorligini tasdiqlaydi. A.X. Sattorov va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ko'krak qafasi travmalarini tashxislash va davolashda zamonaviy miniinvaziv texnologiyalarning afzalliklari qayd etilgan. Shuningdek, qorin bo'shlig'i travmalari, o'tkir xoletsistit hamda gastroezofageal soha kasalliklarini davolashda laparoskopik operatsiyalarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi ushbu texnologiyalarning universal va samarali usul ekanligini ko'rsatadi.

Miniinvaziv usullarning muhim afzalliklaridan biri operatsion travmaning kamayishidir. Kichik kesmalar qo'llanilishi natijasida operatsiyadan keyingi og'riq sindromi kamroq kuzatiladi, bemorlarning erta faollashishi ta'minlanadi va nafas olish tizimi tomonidan yuzaga keladigan asoratlar kamayadi. Bundan tashqari, yara infeksiyasi, plevrit va operatsiyadan keyingi churralar rivojlanish xavfi ham pasayadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ham miniinvaziv texnologiyalar maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bemorlarning statsionarda qolish muddati qisqarishi, reabilitatsiya davrining tezlashishi va mehnat faoliyatiga ertaroq qaytishi davolash xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Shu bois zamonaviy xirurgiyada

videotorakoskopiya va laparoskopiya nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham ustunlikka ega.

Torakoabdominal jarohlarda videotorakoskopiya va laparoskopiyaning kombinatsiyalangan qo'llanilishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'ini bir vaqtning o'zida baholash imkonini berib, diagnostik xatolar sonini kamaytiradi, yashirin jarohlarni aniqlash darajasini oshiradi va keraksiz laparotomiya hamda torakotomiyalarning oldini oladi. Shunday qilib, miniinvaziv texnologiyalar torakoabdominal travmalarni davolashning zamonaviy va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Torakoabdominal jarohatlar ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i organlarining bir vaqtning o'zida shikastlanishi bilan kechadigan og'ir kombinatsiyalangan travmalar qatoriga kiradi. Ushbu jarohatlar yuqori darajadagi diagnostik murakkablik va asoratlar rivojlanish xavfi bilan tavsiflanib, o'z vaqtida va aniq tashxis qo'yishni talab etadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari videotorakoskopiya va laparoskopiyaning torakoabdominal travmalarni tashxislashda yuqori diagnostik aniqlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu usullar yordamida diafragma yorilishi, gemotoraks, pnevmotoraks hamda qorin bo'shlig'i organlarining yashirin shikastlanishlarini erta bosqichlarda aniqlash imkoniyati yaratildi. Diagnostik aniqlikning yuqori bo'lishi davolash taktikasini to'g'ri tanlash va og'ir asoratlarning oldini olishga yordam beradi.

Miniinvaziv texnologiyalarning qo'llanilishi ko'plab hollarda torakotomiya va laparotomiya kabi keng hajmli operatsiyalardan voz kechish imkonini beradi. Natijada operatsion travma hajmi kamayadi, qon yo'qotish darajasi pasayadi va bemorlarning operatsiyadan keyingi holati yaxshilanadi. Shu bilan birga, videotorakoskopiya va laparoskopiya diagnostik usul bo'lish bilan bir qatorda samarali davolovchi usul sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida miniinvaziv usullar qo'llanilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi asoratlar kamroq uchrashi, og'riq sindromining yengil kechishi hamda

statsionarda davolanish muddatining qisqarishi kuzatildi. Bemorlarning erta faollashuvi va mehnat faoliyatiga tezroq qaytishi ushbu usullarning klinik va ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shuningdek, videotorakoskopiya va laparoskopiyaning kombinatsiyalangan qoʻllanilishi torakoabdominal jarohatlarni kompleks baholash imkonini berib, diagnostik xatolar sonini kamaytiradi hamda keraksiz ochiq operatsiyalarning oldini oladi. Bu esa davolash natijalarining yaxshilanishiga va bemorlar hayot sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, torakoabdominal travmalarni tashxislash va davolashda miniinvaziv texnologiyalar zamonaviy jarrohlikning eng istiqbolli yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ularni amaliyotga keng joriy etish diagnostika sifatini oshirish, operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytirish va bemorlarni rehabilitatsiya qilish muddatlarini qisqartirish orqali klinik natijalarni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normamatov B.P., Sattorov A.X. Sovremennyye metody diagnostiki i lecheniya hronicheskogo pankreatita // Theory and Analytical Aspects of Recent Research. – 2023. – Vol. 2, No. 13. – P. 182–198.
2. Gulamov O.M., Akhmedov G.K., Sattorov A.X., Mardonov J.N. Application of minimally invasive gastrectomy for adenocarcinomas of the gastroesophageal region // Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2025. – Vol. 3, No. 3. – P. 148–154.
3. Sattorov A.X., Haydarov N.B. Otsenka metodov diagnostiki i lecheniya otkrytyx i zakrytyx travm grudnoy kletki // Research Focus. – 2023. – Vol. 2, No. 1. – P. 445–453.
4. Islomov N.K., Julbekov K.I., Sattorov A.X., Egamkulov D.X. Gastric damage in multiple and combined abdominal trauma // Boffin Academy. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 229–238.

5. Islomov N.K., Julbekov K.I., Sattorov A.X., Abdulsaidov S.K. Posleoperatsionnaya smertnost pri ostrom xoletsistite // Journal the Coryphaeus of Science. – 2024. – Vol. 6, No. 1. – P. 146–153.
6. Sattorov A.X. Xirurgicheskaya korrektsiya anomaliy stroeniya jelchnogo puzyrya: effektivnost i ekonomicheskaya tselesoobraznost // Ekonomika i sotsium. – 2025. – No. 7. – P. 134–138.
7. Sattorov A.X. Ekonomicheskaya effektivnost xirurgicheskogo lecheniya gnoyno-nekroticheskix oslojneniy u patsientov s saxarnym diabetom i diabeticheskoy stopoy // Ekonomika i sotsium. – 2025. – No. 7. – P. 139–145.
8. Mahmudov S.B., Juraev O.U., Sattorov A.X. Novye xirurgicheskie metody lecheniya hronicheskoy venoznoy nedostatocnosti nijnix konechnostey // Research Focus. – 2024. – Vol. 3. – P. 189–196.
9. Sattorov A.X., Pulatov B.B., Vahidova G.X. Analiz izmeneniy vo vnutrennix organax pri gipoksii // Boffin Academy. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 302–308.
10. Juraev O.U., Sattorov A.X., Xursanov Y.E. Rezultaty ultrazvukovogo dopler angioskanirovaniya pri varikotromboflebite // Tibbiyotda yangi kun. – 2024. – Vol. 10, No. 72. – P. 222–227.
11. Xursandov Y.E., Sattorov A.X. Efficiency of using minimally invasive methods in the surgical treatment of complicated acute cholecystitis // Biomeditsina va amaliyot jurnali. – 2025. – Vol. 2, No. 18. – P. 195–199.